

PAPER

MUSTAQILLIK YILLARIDA O'ZBEKISTONDA AYOLLAR JINOYATCHILIGINING HOLATI

Temirova Mashhura Muhammadaminovna¹, *

¹Qo'qon universiteti dotsenti, PhD.

* temirova@gmail.com

Abstract

Mazkur maqolada Ichki ishlar organlari profilaktika inspektorlarining ayollar jinoyatchiligini oldini olishdagi faoliyati ilmiy asosda tahlil etilgan. Shuningdek maqolada, jamiyatdagi ayollar jinoyatchiligining turlari, uning kelib chiqish sabablari to'grisida aytiladi. Ichki ishlar organlari profilaktikasi inspektorlarining ayollar jinoyatchiligini bartaraf etish bo'yicha sodir etilgan jnoyatlarning turlari aniqlash, hamda buning oldini olishdagi faoliyatlariga tegishli ma'lumotlar keltirilgan.

Key words: ichki ishlar organlari, profilaktika, jinoyatchilik, xotin-qizlar, ayollar, oila, jamiyat, huquqbuzarlik, qonun.

Jinoyatchilik jamiyat taraqqiyotiga to'sqinlik qiladi va fuqarolarda qo'rquv uyg'otadi. Ayollar jinoyatchiligi muammosini tadqiq etish muhim. Davlatlarda ijtimoiy o'zgarishlar davrida korruptsiya va jinoyatchilik kabi salbiy holatlar ko'payadi, bu esa islohotlarga va rivojlanishga to'sqinlik qiladi. Shu bois, ayollar jinoyatchiligi jamiyat va davlat uchun jiddiy tahdid hisoblanadi va uning oldini olish choralari muhokama qilinishi shart. Umumiy jinoyatchilikning alohida, o'ziga xos, ajralmas qismi bo'lgan ayollar jinoyatchiligi ham bundan mustasno emas.

Respublikada xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy va sotsial faolligini oshirish, ularning turli soha va tarmoqlarda o'z qobiliyat va imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishi uchun shart-sharoit yaratish, huquq va qonuniy manfaatlariga so'zsiz rioya qilinishini ta'minlash, onalik va bolalikni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, borasida keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Nayinki ayollar mamlakat aholisining 49,2% tashkil etadi. Jamiyatda ayollar farzandni dunyoga keltirib, uni tarbiya qiluvchi birdan-bir kuch hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 63-moddasida "Oila jamiyatning asosiy bo'g'ini hisoblanadi, u jamiyat hamda davlat tomonidan muhofaza qilinishi" mustahkamlab qo'yilgan. Oila-qadriyat va ananalar beshigi, kelajak avlodlarni ulg'aytiruvchi maskan. Oila atalmish muqaddas dargox poydevorining mustaxkam qurilishida jamiyatning har bitta vakili, shu jumladan, xotin-qizlarning o'rni alohida ahamiyatga ega hisoblanadi. Bugungi kunda o'zining ijtimoiy-iqtisodiy siyosiy salohiyati jihatdan, rivojlangan davlatlar

bilan yuzlashayotgan mamlakatimizda xotin-qizlarga bo'lgan e'tiborning kuchaytirilganligi natijasida, xar bitta soxada raxbar ayollar soning ko'payishi taxsinga loyiqdir. Uning aksi o'laroq oilalarda xotin-qizlar tomonidan turli xildagi huquqbuzarliklar sodir etilishi, ertangi kelajak avlod oldidagi ma'sulyatni unitib qo'yilayotganligi, achinarli xolatdir. Oilada xotin-qizlar tomonidan huquqbuzarliklarning sodir etilishi – bu oila a'zolari o'rtasida sodir etiladigan g'ayriqonuniy xatti-harakatlarda namoyon bo'ladi. Bunday g'ayriqonuniy xatti-harakatlar huquqbuzarliklar shaklida insonlar o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlar jarayonidagi tajovuzkorlikda namoyon bo'ladi. Tajovuzkorlik deganda o'z muammolarini hal etish uchun zo'ravonlik vositalaridan foydalanishni afzal ko'rish tushuniladi. Bu holat kundalik oila turmush munosabatlari doirasida turlicha tajovuzkor xulq-atvorda namoyon bo'lib, qasddan odam o'ldirishgacha olib keladi.

Oiladagi munosabatlarga tahdid soluvchi, farzandlar tarbiyasiga salbiy ta'sir etuvchi huquqbuzarliklarning kriminologik xususiyatlarini o'rganish va huquqiy tahlil qilish hozirgi kunda ham muhim vazifa hisoblanadi. Bu ish oila mustahkamligini himoya qilish va jamiyatdagi salbiy holatlarni kamaytirishga xizmat qiladi.

Xotin-qizlar tomonidan sodir etilgan huquqbuzarliklarning oshib borishi, ular o'rtasida ichkilikbozlik, foxishalik, giyohvandlik illatlarining ortib borayotganligi, ayollarning "ommaviy madaniyat" ta'siri ostida milliy urf-odat va an'analarni mensimasligi, keksalar va farzandlarga bo'lgan e'tiborsizlik,

erkakdan ko'proq pul topib, o'zini so'zini o'tkazishga harakat qilishi, ma'naviy jihatdan buzilishi kabi omillar sabab bo'lishi kuzatilmoqda.

Jumladan birgina 2022 yilning uch oyi yakunlari tahliliga ko'ra, xotin-qizlar o'rtasida o'tkazilgan profilaktik tadbirlar yetarli samara bermayotganligi oqibatida, xotin-qizlar tomonidan sodir etilgan jinoyatlar 38,4 foizga (1163/1610) oshgan va jinoyatlarning 7 foizini (23297/1610) tashkil etgan. Ushbu jinoyatlarning har uchtdan ikkitasi (62%-99ita) Farg'ona (363), Toshkent viloyati (210), Surxondaryo (165), Toshkent shahri (143) va Samarqand viloyati (110) hissasiga to'g'ri kelgan. Jinoyat turlari bo'yicha, xotin-qizlar tomonidan 5 ta odam o'ldirish, 25 ta badanga og'ir shikast yetkazish, 245 ta o'g'rilik, 6 ta talonchilik, 3 ta bosqinchilik, 374 ta firibgarlik, 55 ta bezorilik, 13 ta tovlamachilik, 20 ta giyoxvandlik, 2 ta avtotransport vositasini olib qochish, 862 ta boshqa jinoyatlardan iborat bo'lgan.

Oila-turmush sohasidagi jinoyatlar sababli jazo o'tayotgan mahkumlar bilan o'tkazilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, jinoyat sodir etilishidan avval ayollarning 40%, erkaklarning 20% o'ziga zarar yetkazgan shaxsга nisbatan yomon xulq-atvorda bo'lgan.

Ayollarning yuqori darajadagi viktimlikka egaligi ularning zaifa ekanligida emas, balki jamiyatda saqlanib qolayotgan qadriyatlar hamda oilaviy munosabatlar jarayonidagi urf-odatlardagi ijtimoiy-huquqiy munosabatlar sababdir. Erkaklarning madaniy, ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy munosabatlardagi yetakchilik holati ayollarga nisbatan ruhiy ta'sir etishga yoki ularni oilada iqtisodiy qaram bo'lishga olib keladi. Bunga ayollarning ishlamasdan uyda qolishi, yetarli ma'lumot yoki mutaxassislikka ega emasligi, ijtimoiy hayotda faol emasligi sabab bo'ladi. Oilada erkakning hukmronligi, ya'ni oilada har bir masala yuzasidan faqat erkakning mustaqil qaror qabul qilishi kabi holatlar ayollarning jabrlanuvchi bo'lish ehtimolini kuchaytiradi. Tadqiqot ishlarida ko'rsatilishcha, jabrlanganlarning qasddan odam o'ldirish jinoyatining 23,2%ni, qasddan badanga og'ir shikast yetkazishning 19,9%ni, qasddan badanga o'rtacha shikast yetkazishning 25,0%ni, qasddan badanga yengil shikast yetkazishning 19,0 %ni ayollar tashkil qilgan.

Oila-turmush munosabatlari doirasida sodir etilgan jinoyatlarning 25,6% qasddan odam o'ldirish va unga suiqasd qilish, 68,5% qasddan badanga turli darajada shikast yetkazish, 6,1% bezorilik tashkil etgan. Tahlillar bugungi kunda shaxs hayoti va sog'lig'iga qarshi jinoyatlarning, xususan qotillikning 28%, qasddan badanga shikast yetkazishlarning 20%, haqorat qilish va tuhmatning 12,5% aynan oila-turmush munosabatlari doirasida sodir etilayotganligini ko'rsatmoqda. Shuningdek, oila-turmush munosabatlaridagi jinoyatlarning umumiy jinoyatchilikdagi ulushi oshib bormoqda.

Ayollar tomonidan sodir etilgan jinoyatlarning kriminologik tahlili shuni ko'rsatadiki, ayollar jinoyatchiligi o'zgarmas emas, balki hayotning turli sohalaridagi o'zgarishlar, albatta, uning tuzilishiga ham o'z ta'sirini ko'rsatadi va u ilgari o'zida bo'lmagan xususiyatlarni kasb etib boradi. SHunga qarab, ayollar jinoyatchiligining oldini olish, sodir etilishidagi sabablar, sharoitlar, muammolar, muhit va ayollarning ijtimoiy kelib chiqishini ham inobatga olishimiz kerak. Ushbu yo'nalish bo'yicha shuni ta'kidlash lozimki, "Huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi Prezident qarori bilan huquqbuzarliklar profilaktikasi, jinoyatchilikka qarshi kurashish va jamoat xavfsizligini ta'minlash bo'yicha Respublika komissiyasining "Jinoyatlar, ijtimoiy-maishiy tusdagi huquqbuzarliklar hamda jamoatchilikning yuqori qiziqishini uyg'otadigan voqea-hodisalarning sabablari va bunga imkon bergan shart-sharoitlarni muhokama qilish tartibi to'g'risida" gi qarori talablaridan kelib chiqqan holda Toshkent shahar Ichki ishlar bosh boshqarmasi tomonidan yangicha tizim

yaratilgan edi.

Tizim xodimlari xotin qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilishda birinchi bo'g'inlardan biri bo'lib, xodimlarning malakasi va zo'ravonlik sodir etilgan hollarda, amalga oshirilgan dastlabki harakatlari katta ahamiyatga egadir.

Bunga ko'ra Ichki ishlar organlari huquqbuzarliklar profilaktikasi bo'linmalari tomonidan poytaxtda jinoyatchilik va huquqbuzarliklarga qarshi kurashish va ularni oldini olish bo'yicha bir qator tizimli amalga oshirilgan profilaktik tadbirlar natijasida poytaxtda mavjud 575 ta mahallaning 92 tasida yoki 16 foizida jinoyat sodir etilishiga yo'l qo'yilmadi. Xotin-qizlar tomonidan sodir etiladigan jinoyatchilik va huquqbuzarlikka qarshi kurashish borasida, hamda oila-turmush munosabatlaridagi huquqbuzarliklarni oldini olish, og'ir va o'ta og'ir turdagi jinoyatlarni tahlili parallel tarzida olib borilib, o'tgan davrning 12 oy davomida xotin-qizlar tomonidan jami 1101 ta jinoyatlar sodir etilgan bo'lib, shundan 859 tasi yoki 21,9 foizi ichki ishlar organlar tomonidan aniqlangan jinoyatlarni tashkil etgan.

Ichki ishlar organlar tomonidan aniqlangan Xotin-qizlar jinoyatlarning salmoqli qismi, ya'ni 66,1 foizi Chilonzor tumani (159 ta) va Mirobod tumani (132 ta) hissasiga to'g'ri kelgan. Shuningdek, ayrim tumanlarda jinoyat sodir etishga moyil bo'lgan shaxslarni aniqlash, hisobga olish hamda ular bilan o'z vaqtida profilaktik tadbirlarni tashkil etish ishlari ichki ishlar organlari tuman profilaktika bo'limlarining xotin-qizlar masalalari bo'yicha inspektorlari tomonidan amalga oshirilib kelinmoqda.

Toshkent shahari bo'yicha Ichki ishlar organlarining tashabbusi bilan 2021 yil davomida zo'ravonlikdan jabr ko'rgan, ijtimoiy-huquqiy himoyaga muhtoj 2301 nafar ayollarga himoya orderi berilgan bo'lib, ma'lumot uchun, mazkur zo'ravonliklarning 1841 tasi oiladagi kelishmovchilik, 117 tasi moddiy yetishmovchilik, 93 tasi rashk tufayli, 250 tasi oiladagi uchinchi shaxs aralashuvi oqibatida kelib chiqqan.

Ayollarga nisbatan zo'ravonliklarning 1268 tasi turmush o'rtog'i, 131 tasi qaynonalar, 112 tasi kelinlar va 790 nafar boshqa shaxslar tomonidan sodir etilgan. Himoya orderi cheklovlariga rioya qilmagan jami 46 nafar shaxsга, shulardan MJtKning 206 1-moddasiga asosan 34 nafar fuqaroga ma'muriy choralari ko'rilgan, shuningdek himoya orderi rasmiylashtirilgan davrda 12 nafar fuqaroga nisbatan jinoyat ish qo'zg'atilgan.

Ma'lumki, yuqoridagi jinoyatlarning oldini olish maqsadida, O'zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi kontseptsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida Prezident farmoniga asosan profilaktika inspektorlari ortiqcha va keraksiz yuklamalardan ozod qilinib, ularning mavjud 128 ta vazifalari 22 taga maqbullashtirilgan. Bundan maqsad eng avvalo jamoat xavfsizligi va albatta jinoyatchilikni oldini olish. Maqbullashtirilgan vazifalar yuzasidan ishlarni tizimli yo'lga qo'yish ko'zlangan bo'lib, bunda jamiyatning bosh bo'g'ini bo'lgan oila deb atalgan muqaddas dargohning eng asosiy vakili-ayolning o'rnini mustahkamlash uchun kurashmoq zarurligi nazarda tutilgan.

Shu sababli Respublikada xotin-qizlar jinoyatchiligini oldini olish maqsadida Xotin-qizlar jinoyatchiligining profilaktikasini kuchaytirish va ular tomonidan sodir etilayotgan jinoyatlarni tahlildan kelib chiqib ichki ishlar organlari hodimlari tomonidan MFY lar bilan hamkorlikda ishlash yaxshi samara bermoqda.

Shuningdek jinoyatlarning oldini olish maqsadida xotin-qizlarni profilaktik hisobga olish, ularni ro'yhatdan o'tkazib, ayollar bilan tegishli profilaktik chora-tadbirlarni amalga oshirish va mutassaddi tashkilotlar bilan hamkorlikda, ayollarning bandligini ta'minlash, ijtimoiy va iqtisodiy muammolarini aniqlab, yordam ko'rsatish mexanizmi to'liq yo'lga qo'yilib bormoqda.

Xulosa o'rnida aytish joizki, bugungi kunda ichki ishlar organlari profilaktikasi inspektorlari o'z zimmalaridagi

vazifalarini tunu-kun sharaflil adol etib bormoqda deb aytsak bo'ladi. Chunki jamiyat qanchalik taraqqiy etib, aholi soni ortib borganl sayin, huquqbuzarlik va jinoyatchilikning turlari ortib boraveradi. Bugun O'zbekiston ta'kidlangan har ikki jarayonni boshdan kechirmoqda. Ammo respublikada ichki ishlar organlari faoliyati tizimli tartibga solinganligi natijasida huquqbuzarlik va jinoyatchilikning har qanday turlarini kamaytirish bo'yicha yetarlicha natijalarni qo'lga kiritmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi
2. Tog'ayeva.M. Xotin-qizlar tomonidan oila-turmush doirasida sodir etiladigan huquqbuzarliklar profilaktikasini tashkil etishning xususiyatlari.// O'zbekiston respublikasi Ichki Ishlar Vazirligi Akad yemiyasi huquqbuzarliklar profilaktikasining dolzarb muammolari: nazariya, amaliyot va qonunchilik tahlili respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. Toshkent – 2022. –B.407
3. Niyozova S. S. Shaxsga qarshi zo'rlik ishlatib sodir etiladigan jinoyatlarning viktimologik profilaktikasi. Monografiya. – T.: TDYUU, 2017. – B. 91.
4. Jaxonov A. Oila-turmush munosabatlari doirasida sodir etilgan jinoyatlardan jabrlanishning sabablari va ularga imkon bergan shart-sharoitlar.// O'zbekiston respublikasi Ichki Ishlar Vazirligi Akad yemiyasi huquqbuzarliklar profilaktikasining dolzarb muammolari: nazariya, amaliyot va qonunchilik tahlili respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. Toshkent – 2022. –B.370.
5. Viktimologiya: Darslik / Q.R. Abdurasulova, A.G.Zakirova, F.M.Muxitdinov, Sh.X.Aliyev, S.B.Xo'jakulov, B.A.Umirzakov, G'.S.Qarshiyev va boshq. Mas'ul muharrir, yu.f.d., professor F.M.Muxitdinov. – T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2021. – B. 152
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 14 mart PQ-2833-sonli Qarori.
7. Respublika komissiyasining 14.06.2019 yildagi 4-son qarori